

MATNNI O‘QIB TUSHUNISH VA MANTIQIY FIKRLASHNI MUSTAHKAMLASH.

*Toshketn davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti III bosqich talabasi
Abduraximova Gulshoda*

Annotatsiya: Mazkur maqolada matnni o‘qib tushunish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Muallif o‘quvchilarda chuqr fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda matn bilan ishslashning o‘rni, samarali usullar va amaliy tavsiyalar haqida fikr bildiradi. Matnni to‘g‘ri anglash mantiqiy fikrlashning asosi sifatida ko‘rsatiladi hamda ta’lim jarayonida bu kompetensiyalarni shakllantirish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Tushunish, tahlil, ko‘nikma, fikrlash, baholash, mantiqiylik, matn.

Rivojlanib borayotgan jamiyatda yoshlарimizni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishimiz zarur. Shu sababdan darsliklarimizda matnlar va matnga doir topshiriqlar ko‘paymoqda. Bilamizki, avvalgi darsliklarda grammatik qoidalar va grammatick topshiriqlar ko‘p bo‘lgan va buning natijasida o‘quvchi tayyor qoidalar bilan cheklanib qolgan, mustaqil fikrlash qobiliyati ancha sust edi. Hozirgi kunga kelib matnlarni o‘rganish o‘g‘zaki va yozma nutqni shakllantirishda matnni o‘qib tushunish, nutq so‘zlash va yozma savodxonlik kabi tamoyillarda foydalanilmoqda. Bu hozirgi kunga kelib ancha samara bergeniga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

O‘qish bu faqatgina so‘zlarni tanib olish emas, balki mazmunni chuqr anglash, muallif fikrini tushunish, asosiy g‘oyani ilg‘ab olish, faktlar va dalillar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash demakdir. O‘qib tushunish ko‘nikmasi rivojlangan inson har qanday matndan muhim va foydali xulosalarni chiqarishga qodir bo‘ladi.

Ushbu ko‘nikma ayniqsa yoshlarda erta shakllantirilishi zarur. Chunki o‘quvchilik davrida shakllangan o‘qish madaniyati kelajakda mustaqil fikrlovchi, tafakkuri boy, ziyrak shaxs sifatida kamol topishga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlash – bu muammoni tahlil qilish, asosiy sabablarni aniqlash, dalillardan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bunday fikrlash insonning fikr yuritish

madaniyatini shakllantiradi, uni bir yoqlama emas, har tomonlama fikr yuritishga o‘rgatadi. Aynan mana shu ko‘nikma orqali inson noaniq vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlaydi, hayotiy muammolarga yechim topadi. Mantiqiy fikrlash yoshlarning nafaqat o‘quv faoliyatida, balki kundalik hayotda, kasbiy faoliyatda, jamoa bilan ishlashda ham samarali ishtirokini ta’minlaydi. Shuningdek, bu ko‘nikma tanqidiy tafakkurni shakllantirib, insonni axborotlarga tanqidiy yondashishga o‘rgatadi.

G.A.Asilova - ped. fan. doktori ToshDO‘TAU o‘qib tushunish haqida shunday deydi: “O‘qib tushunish - nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya’ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning 2 tomoni, ya’ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o‘qish texnikasini hamda axborotni sodir bo‘lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O‘qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir. Nutqiy faoliyatning barcha turlari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq ta’limning maqsadga muvofiqligi va samarasini haqidagi metodik qoida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshqa nutqiy ko‘nikmalar, avvalambor, gapirish ko‘nikmalari bilan parallel tarzda rivojlantirilishini taqozo etadi”. O‘qib tushunish ko‘nikmasi orqali inson ongiga, tafakkuriga ham ta’sir etish mumkin va o‘quvchini mantiqiy fikrlashga chorlaydi. Bu borada matn yuzasidan keltiriladigan topshiriqlar ham katta rol o‘ynaydi. Chunki o‘quvchi anglamay qolgan mazmunga topshiriqlar turtki beradi va uning tushunishiga ko‘maklashadi.

Quyidagi usullar matnni o‘qib tushunish va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi:

1. Kitob o‘qish – har kuni badiiy, ilmiy-ommabop yoki tarixiy matnlarni o‘qish orqali bilim va so‘z boyligi ortadi.
2. O‘qilgan matn ustida fikrlash – o‘qilgan asarni tahlil qilish, savollar tuzish, asosiy g‘oyani aniqlash orqali anglash darajasi oshadi.
3. Munozara va suhbatlarda qatnashish – o‘z fikrini mantiqiy izchil ifoda etish va boshqalarning fikriga nisbatan tanqidiy yondashish imkonini beradi.

4. Mantiqiy o‘yinlar va mashqlar – masalan, mantiqiy jumboqlar, topishmoqlar, matematik masalalar orqali fikrlash doirasi kengayadi.

5. Yozma ishlar bajarish – insholar, maqolalar va referatlar yozish orqali fikrlar tizimlashtiriladi, ifoda madaniyati shakllanadi.

Quyida 6-sinflar orasida “Til va adabiyot” jurnalidan olingan “Qadriyat” matni asosida o‘tkazilgan topshiriq va savol-javob mashg‘ulotining namunaviy natijalari keltirilgan.

1-topshiriq: Maqol, hikmatli so‘z va iqtiboslarni tanlash

Matn mazmuniga mos keladigan maqol va iqtiboslarni tanlagan o‘quvchilarning ko‘pchilik fikri quyidagicha bo‘ldi:

To‘g‘ri javoblar:

A. “Bilim-boylik, uni yong‘in ham yoqolmaydi.” (maqol)

D. “Eng qimmat boylik — qalbingdagi bilim va xotiradir.” (hikmatli so‘z)

E. “Ilm — insonni inson qiluvchi eng muqaddas vositadir.” (Abdulla Avloniy)

Izoh:

Bu javoblar matndagi asosiy g‘oya — bilim va tajribaning qadriyat sifatidagi ahamiyati — bilan bevosita bog‘liq.

2-topshiriq: Savollarga og‘zaki javoblar (o‘quvchilarning namunaviy fikrlari asosida)

1. Sizningcha, nima uchun bilim eng katta boylik hisoblanadi?

— Bilim insonni o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Pul yoki boshqa narsalar yo‘qolishi mumkin, lekin bilim inson bilan qoladi.

— Chunki bilim yordamida har qanday muammoni hal qilish mumkin. U boylikdan ham qimmatroq, chunki bilim bilan boylik topiladi.

2. Agar sizga shunday sandiqcha topshirilsa, uning ichiga nimalar qo‘shtigan bo‘lardingiz?

— Men ichiga o‘zim yozgan she’rlarimni, yaxshi kitoblar ro‘yxatini va hayotiy maslahatlarimni yozgan daftarni qo‘shar edim.

— Men rasm, daftar, yaxshi niyatlar va ota-onamdan eshitgan maslahatlarni yozib qo‘yardim.

3. Nega nabira sandiqchani “bebaho xazina” deb bildi?

— Chunki u oddiy narsalar emas, balki hayot saboqlari, bilim va tajriba bilan to‘la edi.

— Bobosining qalbidan chiqqan o‘ylar nabira uchun eng katta boylik bo‘lib tuyuldi. Shuning uchun u uni qadrladi.

Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar bilimning qadrini tushunib yetishdi, qadriyatlar haqida mulohaza yuritdilar va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Ushbu topshiriqlar ularda axloqiy, ma’naviy qadriyatlar, ayniqsa bilimning ahamiyatiga chuqurroq yondashuv hosil qildi.

Xulosa:

Mazkur maqola ta’limiy jarayonda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda samarali usullarni ochib beradi. Kitob o‘qish, matn ustida fikrlash, munozaralarda qatnashish, mantiqiy mashqlar va yozma ishlar orqali o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ifoda madaniyati rivojlanadi.

“Qadriyat” matni asosida o‘tkazilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilar:

Bilimning hayotdagи eng katta boylik ekanini angladilar,

Ijodiy va mustaqil fikrlashni mashq qildilar,

Axloqiy-ma’naviy qadriyatlar haqida chuqur o‘ylashdi,

Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga intildilar.

Shuningdek, sandiqcha timsoli orqali avlodlar tajribasi va maslahatlari bebaho xazina sifatida baholandi. Bu esa o‘quvchilarda hayotga ongli, qadriyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, maqolada berilgan topshiriq va mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini boyitish va bilimga bo‘lgan mehrini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Asilova G.A. Nutqiy faoliyatni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Nazarova S., Qodirova M. O‘qish va yozuv kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Qurbonova N. Matn ustida ishlash texnologiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
6. Xolmatov N. Til o‘rganishda mantiqiy fikrlashning o‘rni. – “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2020, №2.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. O‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: 2022.